

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar diqqatiga!

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812сон Farmoniga asosan hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi 17-son qaroriga muvofiq 2022/2023 o‘quv yili qabulidan boshlab texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni suhbat asosida oliy ta’lim muassasalari bakalavriatiga 2-kursdan o‘qishga qabul qilish tartibi belgilangan.

Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlaganlar toifasiga texnikumdagи butun o‘qish davrida o‘quv semestrlari yakuniga ko‘ra o‘zlashtirish baholari 5 (a’lo) va 4 (yaxshi), biroq o‘zlashtirish baholarining kamida 50 foizi (5 (a’lo) bo‘lgan bitiruvchilar kiradi.

Ushbu toifadagi abituriyentlar **2023-yil 5-iyuldan boshlab 25 iyulga qadar** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **Yagona ta’lim xizmatlari portali my.edu.uz** orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tkazilmoqda.

Ro‘yxatdan o‘tishda abituriyent to‘g‘risidagi ma’lumotlar platformada avtomatik shakllanadi.

Ma’lumot uchun, ushbu Nizom oliy harbiy, oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalariga, Toshkent davlat yuridik universitetiga, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti texnikumlarni muvafaqqiyatli tamomlagan bitiruvchilarini o‘z sohasiga mos bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali 2-bosqichidan o‘qishini davom ettirishi uchun quyidagi o‘z sohasiga mos bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga taklif qiladi:

Nº	Professional ta’lim kodi	O‘rta professional ta’lim mutaxassisliklari	Bakalavriyat yo‘nalishi kodi	Bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi
1	5.11.02.01	Maktabgacha ta’lim	5111800	Maktabgacha ta’lim
2	5.32.03.01	Moliya	5230600	Moliya va moliyaviy texnologiyalar
3	5.32.06.01	Buxgalteriya hisobi va audit	5230900	Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)

Murojaat uchun: Surxondaryo viloyat, Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 360-uy, qabul komissiyasiga (tel. raqami: 95-650-77-57)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti qabul komissiyasi